QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGASHINING QARORI

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ MINISTRLER KEŃESINIŃ QARARÍ

2021 - yil 13 - noyabr 150-13-0-Q/21 Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratish haqida

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Turizm va sport bosh boshqarmasining 2021-yil 27-oktabrdagi Nukus tumani “Aqmangit” SHFY hududidan ko’cha fitnessi (Workout), stritbol va mini futbol maydonchalarini qurish uchun yer maydoni ajratib berish to‘g‘risidagi 03-15/02-1406-son murojaatiga, Qurilish vazirligining ijobiy xulosasi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari va kelishuvlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. Nukus tumani “Aqmangit” SHFY hududidan ko’cha fitnessi (Workout), stritbol va mini futbol maydonchalarini qurish uchun 0,2 ga yer maydoni ajratish to‘g‘risidagi Qurilish vazirligining ijobiy xulosasi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Nukus tumani “Aqmangit” SHFY hududidan ko’cha fitnessi (Workout), stritbol va mini futbol maydonchalarini qurish uchun 0,2 ga yer maydoni doimiy foydalanish huquqi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumani Bolalar va o’smirlar sport maktabiga ajratib berilsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumani Bolalar va o’smirlar sport maktabi (B.Jumaniyazov)ga:

- ajratilgan yer maydoniga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

- ajratilgan yer maydonida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;


- ajratilgan yer uchastkasida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin boshlash vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi **K.Sariyev**

Қорақалпоғистон Республикаси
Вазирлар Кенгашининг
2021 йил 13 ноябрдаги
150-13-0-Q/21-сон қарорига
1-илова



Танланган ер участка КИЗИЛ чизик билан белгиланган

Jer uchastkası haqqında qısqasha maǵlıwmatlar: Nókis rayonı " Aqmangit PPJ aymaǵında jaylasqan,
Shıǵıs tárepinde: Aholi punkit
Batıs tárepinde: Aholi punkit
Arqa tárepinde: Aholi punkit
Qubla tárepinde: Aholi punkit
Kordinatasi: 42°35'35,609"C 59°32'50,584"B
42°35'36,155"C 59°32'51,246"B
42°35'34,279"C 59°32'54,212"B
42°35'33,722"C 59°32'53,584"B
Rayon orayınan 982 m aralıqta
Jer uchastkası maydani (90 x 22,86) m: 2057,4 m.kv
Jer fondi: Awıl xojalıǵında paydalanbaytuǵın basqa jerler
Qaysı maqsette paydalansa boladı: Sport maydanshalari ushin
Jer turi: Awıl xojalıǵında paydalanbaytuǵın basqa jerler
Ball boniteti: Bahalanbaǵan
Jer uchastkası kadastr nomeri: 23:06:01:01:01:4050